

DISKURSDA MA'NO VA MATNNI NOMLASH VA GURUHLASH MASALASI

Qo'ldasheva Shaxnoza Akramovna,*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Dotsent v.b.,**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**E-mail: skuldasheva@mail.ru***Ochilova Vazira Rustamovna,***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Dotsent**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**E-mail: vazira.ochilova@gmail.com***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18486764>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada diskursda ma'no va matnni nomlash va guruhlash masalasi to'g'risida so'z yuritiladi. Dunyo tilshunosligida diskurs nazariyasining asosini til hodisalari va ularning shakily tomonlarini o'rganish tashkil etadi. Shu nuqati nazardan diskurs hodisasini lingvokulturologik jihatdan o'rganish zarurati zamonaviy bilim paradigmasining tobora kuchayib borayotgan fanlararo aloqadorligi bilan hambarchas bog'liq bo'lib, uning doirasida til hodisasining birinchi aspekti bo'lmish diskursni mantiq, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan aloqasi asosida ko'rib chiqishni belgilab beradi. Diskursning mohiyati asosida turli tillarda so'zlashuvchi insonlarning dunyoni, borliqni o'z tili imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'zgacha tasviri degan g'oya yotadi. Gumboldt ilgari surgan bu g'oya keyinchalik boshqalar tomonidan qizg'in qo'llab quvvatlangan va turli tillar misolidida tadqiqot ishlari olib borilgandi. Ammo bu nazariyani amaliy jihatdan jahon tillari misolida o'rgangan olimlar-tilshunoslar faqatgina tillarning lug'at tarkibi misolidagina bu g'oyaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirib ko'rishga harakat qilib keldilar va shu yo'sinda davom etmoqdalar.

Kalit so'zlar: diskurs, matn, lisoniy muloqot, pragmatika, madaniyat, kontekst, eksplikatsiya, implikatsiya, propozitsiya, presuppozitsiya.

Abstract. This article discusses the issue of naming and grouping meaning and text in discourse. In world linguistics, the basis of discourse theory is the study of linguistic phenomena and their formal aspects. From this point of view, the necessity of studying the phenomenon of discourse from a linguacultural point of view is closely related to the growing interdisciplinary connection of the paradigm of modern knowledge, within the framework of which it determines the consideration of discourse, which is the first aspect of the linguistic phenomenon, on the basis of its connection with such sciences as logic, psychology, sociology. The essence of discourse is based on the idea that people speaking different languages have a different picture of the world, existence, based on the capabilities of their language. This idea, put forward by Humboldt, was later enthusiastically supported by others, and research was conducted using different languages as examples. However, linguists who have studied this theory practically using world languages as examples have tried and continue to try to verify whether this idea is correct or incorrect only through the example of language vocabulary composition.

Keywords: discourse, text, verbal communication, pragmatics, culture, context, explication, proposition, presupposition.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос наименования и группировки смысла и текста в дискурсе. В мировой лингвистике основой теории дискурса является изучение языковых явлений и их формальных аспектов. С этой точки зрения необходимость изучения феномена дискурса с лингвокультурологической точки зрения тесно связана с растущей междисциплинарной связью современной парадигмы знаний, в рамках которой рассматривается дискурс, являющийся первым аспектом языкового феномена, на основе его связи с такими науками, как логика, психология, социология. В основе дискурса лежит идея о том, что люди, говорящие на разных языках, представляют мир и бытие по-разному, исходя из возможностей своего языка. Эта идея, выдвинутая Гумбольдтом, впоследствии была горячо поддержана

другими, и исследования проводились на примере различных языков. Однако ученые-лингвисты, изучавшие эту теорию практически на примере мировых языков, пытались проверить правильность или неправильность этой идеи только на примере лексического состава языков и продолжают делать это.

Ключевые слова: дискурс, текст, языковая коммуникация, прагматика, культура, контекст, экспликация, импликация, пропозиция, пресуппозиция.

Kirish. Tilshunoslikda diskurs kategoriyasining asosiy xususiyatlarini ingliz va o‘zbek nazariy tilshunosligida funksional yondashuv va kognitiv-diskursiv paradigm nuqaty nazaridan ko‘rib chiqilgan. O‘z navbatida, tadqiqot markazidagi tillarning xususiyatlarinigina emas, balki xalq madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar, an‘ana va qadriyatlar asosida shakllangan milliy-mental xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisalar, xususan, diskurs kategoriyasini lingkognitiv aspektda tadqiq etish muhim masala hisoblangan.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o‘ta jadallik bilan sodir bo‘layotgan fanlar integratsiyasini o‘zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo‘lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo‘nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi. Ma‘lumki, diskurs (fr. Diskurs - nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma‘noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab bog‘lanma matn tushunchasini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik suxbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo‘llanila boshlagan. [2] Tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Diskurs lotincha diskursus - muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya‘ni muhokamatalab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali bosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir.

Adabiyot tahlili. Diskurs tushunchasi Z.Harris tomonidan 1952 yil olib kirilgan bo‘lsa, atigi 10 yil o‘tgan Evropa tilshunosligida mavjud bo‘lgan bir qator lingvistik maktablarda va ta‘limot yo‘nalishlarda diskurs atamasi yangi turlicha ma‘nolarda ishlatila boshladi. Masalan, tagmemikada (Pike 1967, Grimes 1975, Longacre 1976), umumiy tilshunoslikda (Halliday M.A.K.1961, Hartman 1964, 1968, Harweg 1968, Petofi 1971, Van Dijk 1972, Dressler 1973, Schmidt 1973), grammatika, stilistika, poetikaning tadqiqida (J.Leech 1966, D.Crystal, J.Javi 1969), matn grammatikasida (Sinclair, Coulthavd 1975, Dressler1981), funksional paradigma tahlilida (Givon 1979), sotsiolingvistikada (W.Labov 1972, Gumpers, Hymes 1972, Bauman Scherzer 1974, Sanches, Blount 1975), etnometodologiyada (Sudnow 1972, Sacks, Scheglofg, Jefferson 1974, Schenkein 1978), psixolingvistikada (Clark and Clark 1977, Fodor, Bever and Garreff 1974). Matni tushunishning pedagogik psixologik masalalarida diskursning roli haqida Rothkoff 1972, Meyer 1975, 1978 yildan boshlab bu yo‘nalishda “Discourse processing” ilmiy jo‘rnali chop etila boshladi. Bularning barchasi diskurs tushunchasi va

uning ma'nosi hamda qo'llanishidagi diversifikatsiya jarayonini intensivlashuviga olib keladi.

Nazariy asos. Nazariy jihatdan diskurs kategoriyasi mantiqiy tuzilishga ega. Fanda ma'lum diskurs uchun boshlang'ich tuzilish konyunksiya, dizyunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlari bilan o'zaro bog'langan elementlar propozitsiyalar ketma-ketligi ko'rinishiga ega. Bu o'rinda diskurs elementlari: bayon etilgan voqea hodisalar, ularning qatnashchilari, performativ axborotlar va hodisalar emas balki a) hodisalardan keyingi kutilgan holatlar b) hodisalarni aniqlashtiradigan mavjud fon v) voqea-hodisa qatnashchilari mazkur diskursdagi bahosi g) diqqat markazidagi diskursni voqealar bilan solishtiradigan axborot. [7] Diskursni unga xos bo'lgan barcha ekstralingvistik omillar bilan birgalikda mavjud fikrlar, qarashlar, baho, adresantning maqsadini o'z ichiga olgan matn yoki harakatdagi nutq deb tushunsa bo'ladi. Bunda diskursni shunchaki til sifatida nazariy grammatika, stilistika yoki leksikologiya obyekti kabi hisoblab bo'lmaydi. U eng avvalo, matnlarda mavjud, lekin shunday matnlardaki, ularning ortida alohida grammatika, alohida lug'at boyligi, o'ziga xos o'z ishlatish va uncha qat'iy bo'lmagan sintaksis qoidalari, va shu kabi semantikada mavjud bo'lgan matnlarda, bir so'z bilan aytganda nazariy jihatdan diskurs alohida dunyodir.

Tahlillar va natijalar. Diskurs nazariyasi va uning asosiy muammolari haqida gapirilganda, diskursning eng muhim kategoriyalari hisoblangan eksplikatura va implikatura haqida ham to'xtalishga to'g'ri keladi. [4]

Nutq jarayoni tahlilida diskursda eksplitsitlik va implitsitlik hodisalarini o'zaro nazariy jihatdan moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Bu esa kommunikatsiya jarayonida propozitsiyaning ifodalanishi faqat til birliklarga bog'liqlik bilan cheklanib qolmasligini, bunda noverbal vositalarning ham ma'lum darajada o'rni borligini ko'rsatadi. Kommunikatsiyaning zamonaviy ma'lumot - kod modeli fikr ifodalash uchun kontekstning ichki (kognitsiya) va tashqi (persepsiya) imkoniyatini qarab chiqishni, inferension mexanizmlarni tavsiflashni taqozo qiladi. Bunda "eksplitsitlik" ma'nosi muhim hisoblanadi. Ifodalanayotgan fikrning eksplitsitlik darajasi shakliy (xususan, lisoniy) komponentlarning mavjudligiga qarab belgilanadi, diskurs implikaturasi konvensional aniqlanmagan ma'no va mazmunning asl yo'nalishlarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. G.P.Grays fikricha "so'zlash" va "uylanmoq" o'rtasidagi chegara zamonaviy lingvopragmatikaning mohiyatini belgilab beradi. Bunda mazmunning ikkinchi yo'nalishi diskurs kategoriyalari, ma'no va mazmunning muvofiq bo'lmagan, belgilanmagan konvensional yo'nalishlarini qarab chiqadigan - implikatura bilan shartlangan bo'ladi. Kommunikativ implikatura esa nutqiy vaziyatga bog'liq holda mo'ljallangan va nazarda tutilgan fikrlarni ifodalashda ma'noli chekinishga qarab belgilanadi. Kommunikativ implikaturasi diskursda implisit ma'lumotning boshqa turlaridan farqlanuvchi bir qator belgilarga ega. Ular quyidagilar:

- fikr ma'nosidan ularning miqdori chiqariladi;

- ular pressupostsiyadan farqli ravishda fikr ma'nosidan ajralmas hisoblanadi; ular konvensional emas, shuningdek, ilisoniy shaklning konvensional qismi hisoblanmaydi.

Diskurs tahlilning bir qancha analitik usullari bo'lib, V.Z.Delmenkov ikki turini ajratib ko'rsatadi. [5]

1. Formal modellar - ularda til shakllarining semantik sifatlari e'tiborga olinmaydi va tilning tarixiy aspektlaridan uzilgan holda tadqiq qilinadi. Nutq aktlari nazariyasi, so'zlashuv tahlili va nutq etnografiyasi bularga kiradi. Bu modellar kommunikativ (muloqot) kompetensiyasini tasvirlashga yo'naltirilgan. Diskursning formal nazariyalari so'zlashuv tili mavjud bo'lishining shakllarini sotsiologik aspektda kishilarning o'zaro harakatini ko'rib chiqish nuqtai nazaridan qaraydi. Tadqiq qilinayotgan birliklar gap darajasida yuqorida bo'ladi, masalan bu birliklarga nutq aktlari va muloqotning borishi va replikalar almashinuvini kiritish mumkin.[3]

2. Ma'nodorlik modellari - bularda diskurs tahlil ham nazariy, ham amaliy jihatdan to'liq semantik va tarixiy aspektlarga e'tiborni qaratadi. Bunga M.Fukoning yondashuvini misol qilib ko'rsatsak bo'ladi. [8] U diskurs deganda "so'zlar vositasidagi perfomanslar yig'indisi" deb tushunadi va uning diskurs tahlili nutqiy faoliyat hodisasini aniqrog'i belgilar yig'indisi bilan hosil qilingan faoliyat hodisasini tushuntirishga yo'naltirilgan.[1]

T.van Deyk ishlab chiqqan diskurs tahlil modeli tilshunoslikda ko'proq bahsga sabab bo'ldi. Bu modelning asosiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. T.van Deykning diskurs tahlili o'zida V.Z.Demyankov ilgari surgan kommunikativ hodisa va verbal o'zaro harakat sifatida tushunilgan ham formal, ham manodorlik aspektlarini qamrab oladi.

2. Bu modelga ko'ra diskurs tahlili nutq gapirish mahsuli sifatida, matn esa kommunikativ hodisaning butunicha kontekstda yozilishi mahsuli sifatida qaraladi.

3. Bunday yondashuv bilan T.van Deyk diskursning ochiqligini, biqiq emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, diskurs tahlili bizni modellar va ijtimoiy kontekstlar yordamida boshqa diskurslarga o'tkazadi. [6] Diskurs tahlili so'zlashuvning, matnning, kontekstning, jamiyatning makro muhitdan mikro muhitga va aksincha doirasi bo'ylab harakatlanadi.

T.van Deykning modellariga ko'ra diskurs tahlilining asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. matn va so'zlashuvlarning tabiiy tilini o'rganish;
2. kontekstning qo'llanilishi (ijtimoiy va madaniy)
3. yozma va og'zaki diskursni uning qatnashchilarining ijtimoiy amaliyoti sifatida qaralishi;
4. Og'zaki nutqning o'rganilishi, lekin bu bilan yozmani to'la inkor etilishi kerak emas;
5. diskurs tahlilida uning qatnashchilari tomonidan hosil qilingan kategoriyalashni hisobga olinishi;
6. diskursining umumiy ahamiyati va funksiyasini aniqlashtirish;

7. barcha yo‘nalishlar va barcha darajalar (tovush, grammatik, semantik) bo‘yicha diskurs tahlil qilish;

8. diskursining konstruktivligini hisobga olish, chunki uning konstruktiv elementlari funksional ishlatilishi, boshqa elementlarning qismlari sifatida tushunilishi va o‘rganilishi mumkin;

9. umumiy grammatik, kommunikativ qoida va nutqiy o‘zaro ta’sir qoidalarini hisobga olinishi hamda ushbu diskursda mavjud qoidalarning o‘zgarishi, inkor qilinishi va qoidalarning buzilishlarini qarab chiqish;

10. tilini qo‘llovchilar diskurs maqsadiga erishish uchun ishlatadigan strategiyalarni aniqlash.

Xulosa. Diskursda ma’no va matnni nomlash va guruhlash masalasini tadqiq qilish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik. Diskurs axborotiga so‘zlovchining munosabati quyidagigacha bo‘lishi mumkin.

a. Nutq sodir bo‘lyotgan diskursda so‘zlovchi o‘zi aytayotgan narsaga o‘zi ishonadi va boshqalarning unga ishonchini xohlaydi;

b. Diskursda so‘zlovchi o‘zi aytyayotgan narsalarga o‘zi ishonmaydi ammo boshqalarning unga ishonishlarini xohlaydi.

Diskurs matn semantik strukturasi va mantiqiy izchilligini ta’minlash uchun va uni to‘laligicha idrok qilish uchun undagi strukturaviy va kompozitsion yaxlitlik va uni tashkil qiluvchi qismlar o‘rtasidagi aloqa, munosabatlarni tushunish va unga yetarli darajada to‘g‘ri baho bera olish kerak. Agar matnni tashkil etuvchi qismlar o‘rtasida munosabat, aloqa buzilsa, boshi - oxirining o‘rnida kelsa, o‘rtasi boshiga chiqib qolsa yuborilayotgan axborotning kontekstual yaxlitligi buziladi va diskurs undan kutilgan kommunikativ vazifani bajara olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse. The Hague. - Paris: Mouton: 1981, - 331pp.
2. Harris Z. Discourse Analysis. // Language. - Vol. 28, No. 1 - 1952. - pp. 1-30.
3. Qo‘ldashev A.M. Tilni egallashda lisoniy va madaniy dunyoqarashning roli. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – 2024. - 4-son. - 704-706 bb.
4. Qo‘ldasheva Sh. A. Tilshunoslik sohalari orasida lingvokulturologiyaning tutgan o‘rni. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – 2025. - 2-son. - 426-428 bb.
5. Демьянков В.З. Функционализм в зарубежной лингвистике конца XX века. / В кн.: Дискурс, речь, речевая деятельность, - М: РАН, ИНИОН, 2000. - С. 26-136.
6. Очилова В.Р. Талабаларга инглиз тилидаги лексик бирликларни метакогнитив ёндашув асосида ўргатиш. (Монография) – Тошкент: “ВАҲОЗ”, 2023. – 120 бет.
7. Степанов, Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С. Степанов. – Москва // Язык и наука конца XX века: сборник статей / Ред. Ю.С. Степанов. – Москва: Институт языкознания РАН, 1995. – С. 35-73.
8. Фуко М. Археология знания. / М.Фукокиев. Ника - центр, 2006. – 418 с.